

NAQSHBANDIYA TARIQATI VA UNING MA'NAVIY JIHATLARI**Narquziyev Yusufbek Yunusbekovich**

Guliston Davlat Universiteti Ijtimoiy

Gumanitar fanlar o'qitish metodikasi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Abstract

This article emphasizes the role of the Naqshbandi sect in the development of our national spirituality and the special attention paid to the work and name of Bahovuddin Naqshbandi, and the spread of the Naqshbandi sect to other countries in the Middle Ages and the Naqshbandi sect and teachings.

Key words.

Spiritual aspects of Naqshbandi, Naqshbandi sect, Naqshbandi doctrine, Dil ba yoru dast ba kor, Naqshbandi method and rules.

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotida Naqshbandiya tariqati o'rni va Bahovuddin Naqshbandning ijodiga va nomiga qaratilgan alohida e'tibor va o'rta asrlarda Naqshbandiya tariqati boshqa mamlakatlarga yoyilishi va Naqshband tariqati va ta'limotiga e'tibor yuqori ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar.

Naqshbandiyaning ma'naviy jihatlari, Naqshbandiya tariqati, Naqshband ta'limotini, Dil ba yoru dast ba kor, Naqshbandiya usul va qoidalar.

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizda so'ng necha ming yillik xalqimizning asazali orzusi amalga oshdi. Tarixdan bizga ulkan va biz uchu juda qadriqli bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarimiz mustaqillik tufayli qayta tiklandi. Mazkur moddiy va ma'naviy jihatdan islom dinimizning barcha ijobiy jihatlarini ko'rsatib va islom dinni keng ko'lamda yoyilishi uchun xizmat qilgan Naqshbandiya tariqatidir. Naqshbandiya—tasavvuf tariqatlaridan biri bo'lib va Bahovuddin Naqshband asos solgandir. Naqshbandiya xo'jagon tariqati negizida yaratilgan bo'lib, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy qarashlarini va ser hikmat ma'naviy tomonlari bilan omuxta etdi, ularga yangicha ruh berib rivojlantirildi. XV-XIX asrlarda hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvadorlar va qishloqlar orasiga keng yoyildi. Naqshbandiya ta'limotining negizida «ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilann band bo'lsin» «dil ba yoru, dast ba kor» shiori yotadi. Naqshbandiyada piru muridlik qoidalari xiyla osonlashtirilgan, sirdan turib e'tiqod qo'yish, imon mustahkamligi, Haq taolaga sidqidildan itoat etish, ixlos va ma'naviy kamolot asosiy o'rin egallaydi. Rasm- rusumlar, odatlarni ko'r-ko'rona ado etish, riyo, soxta dindorlik qoralanadi va albatda taqiqlanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak va oliy fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma'naviy komilligi bilan o'lchanadi. Unda hunar, kasb egallab, o'z mehnati bilan halol luqma yeb yashash talab qilinadi, tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod hisoblangan. Qul, xizmatkor saqlash, o'zganing mehnatidan foydalanish ham man etilgandir. Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxo'rlikka qarshi qaratilgandir. Naqshbandiyada manmanlik, kibrlilik, sufiy, shayxman deb kerilish, shovqin-suron ko'tarib zikru samo bilan odamlar diqqatini o'ziga qaratish qoralangandir. Naqshbandiyada asosiy talab — qalbni dunyo g'uborlaridan tozalash, o'z nafsini bilan kurashib ruxda charog'onlik topish, qalabda Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgandir. Zikri xufiya ya'ni yashirin zikr tushish shunga xizmat qilgan. «Tashqaridan xalq bilan, ichkaridan Haq bilan bo'lish», har bir nafasni Ollox yodi bilan chiqarish, qadamni savob

ishlar, ezgu amallar sari qo'yish, mamlakatlar kezib, aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilish, g'ofillarni hushyor etish, har qanday holatda qalb ogohliligiga erishish — Naqshbandiyning asosiy ma'naviy tarbiya usuli hisoblangan.

Naqshbandiyada pir va murid o'rtasidagi ma'naviy orifona suhbatga katta e'tibor qilingan. Naqshbandiyaga ko'ra, suhbat anjuman ichra bo'lish, bilmaganni bilib olish, yuksalish, karomatlar siru asrori, ilohiyot olami nurlaridan baxramandlik bo'lsa, buning aksi xilvat esa kishini bilimdan, ma'rifatdan mahrum qiladi. Naqshbandiyada o'zini o'zi nazorat qilib borish, olgan bilimlarini dilda mustahkamlash, umrning har bir damini savob ishga, har bir nafsni ma'naviy kamolot uchun sarflash lozimligini takidlab o'tgandir. «Vuqufi zamoniy» ya'ni muayyan vaqtda to'xtab o'zini tekshirish, «vuqufi adadiy» ya'ni ishlarini sarhisob qilib tekshirish, «vuqufi qalbiy» ya'ni qalb amallari qanday bo'layotganligini to'xtab, tekshirib borish kabi shiorlar «qudsiy so'zlar» ham ana shu nazorat usullaridan joy olgandir. Naqshbandiyada shu tariqa, tasavvufni islom shariati va payg'ambar sunnati bilan yanada mustahkamroq bog'ladi. «Urvatul vusqo», ya'ni barcha ishlarda payg'ambar so'zlari va ishlariga suyanish Naqshbandiya shiorlaridan biriga aylandi. Naqshbandiyada sufiylik iste'dodiga ham e'tibor berilgan, ya'ni ba'zi insonlarning men falon silsiladanman, nasl-nasabim falon-falonchilarga borib taqaladi, degan gaplariga qarshi Bahouddin Naqshband «ran silsilada emas», ran Allohning jazbasida» deb aytadi. Jazba bo'lmasa, sufiylikda maqomatlarga ko'tarilish qiyin.

Naqshbandiya tariqati Bahouddin Naqshband hayot chog'idayoq juda keng shuhrat va nom qozondi. Uni nazariy jihatdan ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin Attor xizmatlari juda yuqori bo'ldi. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq emas, balki Buxoro va Samarqand ulamolari, Temuriylar avlodidan bo'lgan shoh va shahzodalar kira boshladilar.

XV asrdayoq Naqshbandiya Turkiya, Afg'oniston, Misr, Eron, Hijoz, Kavkazga tarqala boshladi. Ayniqsa, «hazrati Eshon» unvoniga musharraf bo'lgan Xoja Axror valiy — Nosiriddin Ubaydulloh faoliyati tufayli tariqatning obro'-e'tibori yana ham oshdi. Bahouddin Naqshband zamonida mansabdor shaxslar, shohu amirlardan uzoq turish lozim deyilgan bo'lsa, Xoja Ahror valiy davrida Naqshbandiya siyosiy doiralarga kirib bordi. Naqshbandiya XVI asrda Hindistonga tarqaldi. Bunda Bobo valiy, Xoja Boqibilloh, Axmad Sirhindiy faoliyati yaxshi samara bergan. Ayniqsa, Ahmad Sirhindiy u erda sunniylik yo'nalishini mustahkamlash uchun Naqshbandiyadan juda unumli va samarali foydalanganlar. Tariqatni Turkiyada yoyilishida Mulla Abdulloh Simaviy, Ahmad Buxoriy va b. shaxslarning xizmati bor. Naqshbandiya XVI va XVIII asrlarda Eronning Nishopur, Isfahon, Yazd shaharlariga tarqalib, shular orqali Falastin, Iroq, Iordaniyada ko'plab tarafdorlarga ega bo'lgan. Naqshbandiya tariqatining umuminsoniy g'oyalar, ma'naviy kamolot, botiniy poklikni targ'ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keldi. Uning muxlislari bir necha million kishini tashkil etadi. El orasida Xoja Bahouddin Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur bo'ldi. Buxoroda Qasri Xinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Baxouddin Naqshband Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Mavloni Orif Xalil ota, Kusam Shayx kabi ustozlardan saboq olgan. U ikki marta xaj qilgan. G'aribona xayot kechirgan, faqat o'z mehnati orqali dehqonchilik va keyinroq mis va kimxobga naqsh solish bilan kun ko'rgan. O'z ta'limotini yaratishda Abduxoliq G'ijduvoni asos solgan Xo'jagon silsilasining sakkiz moddadan iborat qoidasiga o'zining uch qoidasini ya'ni talabini qo'shib uni takomilga yetkazdi. Shu tariqa tasavvuf Naqshbandiya tariqatida yanada mukammallikka erishdi. Baxouddin taxallusi Naqshbandning dinni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun qilgan xizmatlari ulug' va beqiyos bo'lganligi uchun berilgan. Ma'nosi dinning faxri, bebaxosi demakdir. Naqshband taxallusiga kelsak, u ikki mazmunda talqin etiladi. Biri ul zot misga, matoga gul, naqsh soluvchi bo'lganligi uchun naqshband taxallusi berilgan deb e'tirof etiladi. Ikkinchi talqin esa Allohni qalbiga naqsh qilib olgan degan ma'noda ifodalanadi. Baxouddin Balogardon deyilishiga sabab ustoz Shayx Boboyi Samosiyning Naqshbandga qarata aytgan — Karomat qilibdurlarki, nozil bo'lgan balo sening barokatingdan daf bo'lg'ay! so'zlariga nisbat berilgandir. Baxouddin Naqshband shonu shuhratning shox supasiga ko'tarilganlarida ham o'zlari uchun xizmatkorlar saqlamagan ekan. Aksincha shoxu gado barobarligi to'g'risidagi adolatli g'oyani ilgari surgan. Xo'jalik bandalikka to'g'ri kelmas, Allox oldida barcha barobar va tengligi deb aytganlar. Naqshband o'zini doimo xukmdorlardan uzoqda tutgan. Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak va oliy janob va insoniy burch ekanligini ta'kidlab, sham

kabi yong'el,elga oydinlik ulash, ammo o'zing xilvatda turgil deb aytgan. U xamma uchun, ayniqsa oddiy xalq, xunarmandlar uchun qo'l keladigan —Dil ba yoru dast ba kor,—Dil yor (Allox) bilan, Qo'l ish bilan band bo'lsin shiorini o'rtaga tashlagan. Bu shior naqshbandiylikning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Aytish joizki mazkur xayratli shiorda tasavvufni nazariy va amaliy jixatlari tugal xolga kelganligi o'z ifodasini topgani ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, tasavvuf yo'liga kirgan kishi Tavxid (Allox) moxiyatini o'zi uchun anglab yetdi, endi bundan keyin nima qilishi kerak? Bu savolga tasavvufning oxirgi tariqati Naqshbandiya javob beradi. Birinchi maqsadga erishildi – dilda yor xolati mavjud, endi ishga kirishmoq lozim –dast ba korga o'tishi kerak. —Dilda yor xolati tasavvuf yo'liga kirgan kishining dilida, ya'niki qalbida g'araz, xudbinlik yo'qligini, uning pokligini bildiradi. —Dast ba kor ishga qo'l ursa tasavvuf axlining o'z shaxsiy g'arazli maqsadlari uchun emas, xolis Alloh uchun, xaqiqat va adolat tantanasi uchun amaliy xarakterga kirishilgan bo'ladi. Shu sababli xar nafas —dilda yor bo'lishi, Allox ismi dilda zikr etilishi, ya'ni —Xush dar dam qoidasiga amal qilishi taqozo qilinadi. Chunki Allox nomi bir nafas dilni tark etsa, darxol o'rnini g'araz xudbin bir niyat egallashi mumkin. Nazar bar qadam shu ma'noga yaqin turib, u bexuda biror qadam qoymaslik, xar bir amaliy harakatning Allox yo'lida qoyilayotganini xis etib,diqqat bilan kuzatib, nazardan qochirmay borish kerakligini bildiradi.Naqshband ilgari surgan —Dil ba yoru dast ba kor shiorini yanada soddaroq tarzda shunday izoxlash mumkin. Tasavvuf axlining maqsadi Allox vasliga erishish bo'lsa, buning uchun tarki dunyo qilish, zoxidlik yo'liga kirishi shart emas, balki Alloxni har damda dilda zikr etib, qo'l esa mehnat bilan band bo'lgan xolda ham yetish mumkinligini anglatadi.

Baxouddin Naqshband Islomni hayot bilan, shaxs va oila bilan, jamiyat ravnaqi bilan bog'lab —Kam yegil, kam uxla va kam gapir deb nasixat qilgan.

Amir Temur bu shiorga amal qilib, arkonu davlatga, barcha mulozimlarga aytar

so'zim shu bo'ldi: —Kam yenglar ocharchilik ko'rmasdan boy va badavlat

yashaysizlar, kam uxlanglar va mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar –dono bo'lasizlar deb yozgan.Naqshband doimo adolatni, mehnat asosida bunyod etilgan xalol luqmani ma'qullagan. Bu jihatdan uning —insondagi yahshi fe'llar, yaxshi amallar xalol luqmadandir so'zlari biz uchun ibratdir.Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun- moxiyati jixatidan yangi tarbiya usullari-suxbat ta'limi, yashirin, botiniy zikr, —anjuman ichra xilvatni olg'a surishi va targ'ib qilishi bilan ajralib turadi,ya'ni Alloxga yaqinlashishning butunlay yangi bo'lgan, sifat jixatdan avvalgi tariqatlardan katta farq qiladigan 11ta qoida, talab va usullarini ishlab chiqqanligi bilan ajralib turadi.Bu usul va qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Hush dar dam. Tariqat a'zosi doimo Allox nomini zikr qilishi, zikrga g'arq holatda xushyor bo'lib yurmog'i lozim. Har bir nafas olganda va chiqarganda xushyorlik va ogohlikni yo'qotmaslik lozim, toki bunda g'aflat ruhingga xech yo'l topa olmasin.

2. Nazar bar qadam. Muridning nazari doim har bir bosgan qadamni nazarga saqlasin, uning nazari behuda narsalarga sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin. lozim bo'lmagan joyga bormasin.

3. Safar dar vatan.Tariqat a'zosi ruhi tanasida bo'lgan holda Alloh sari intilishda bo'lsin, ya'ni har bir inson vafot etgach, tanasi tuproqqa aylanib yerda qoladi, ruhi esa Allohga qaytadi. Ammo sufiy tirik paytida ham fikri-zikri Alloh bilan bo'lishi kerak.

4. Xilvat dar anjuman. Muridning doimo —Qalbing Alloxda, qo'ling esa mexnatda shioriga amal qilib, zoxiran xalq bilan,botinan Xaq bilan bo'lishligini bildiradi.

5. Yodkard.Tariqat a'zosi doimo Allox yodi bilan yashamog'i va zikr qilmog'i lozim.

6. Bozgasht,ya'ni Allohga qaytish. Tariqat a'zosi tili yoki dilida kalima keltirgandan so'ng uning orqasidan—Xudovando,mening maqsadim sensan so'zini aytadi. Bu qoida odamdan yahshi yoki yomon fikrlarni xaydovchidir.

7. Nigaxdosht. Tariqat a'zosi o'zining har bir hatti-harakatini Alloh roziligi yo'lida bajarilayotganligini hushyorlik bilan nazorat qilib borishi.

8. Yoddosht. Sufiyning maqsadi doimo Allox rizoligi yo'lida harakat qilishi kerakligini yodida saqlashi lozimligi.

9. Vuqufi zamon. Tariqat a'zosining doimo o'z vaqtini xisob-kitob qilib yurishi, vaqtning qanchasi xayrli,qanchasi yomonlik uchun bo'lganligini oylab yurmoqligi odobini bildiradi.

10. Vuqufi adadiy. Tariqat a'zosi uchun xamisha Allohning yagonaligini, tanxoligini, voxidligini nazarda tutib yurish odobidir.

11. Vuqufi qalb. Tariqat a'zosining xamisha o'z dilida Alloxni saqlash bilan ko'ngli to'q xamda xotirjam bo'lib yashirin zikr xolatida bo'lish odobini bildiradi.

Yuqorida qayd etilgan tariqat a'zosi amal qilishi shart bo'lgan qoida, talab, odobning sakkiztasini Abduxoliq G'ijduvoniyy yaratgan. Ular Baxouddin Naqshband tomonidan yana uchta qoida bilan boyitilib takomilga etkazilgan.

Baxouddin Naqshband xaqida Alisher Navoiy –Nasoyim ul-muhabbat asarida shunday deb yozgan: –Oliy sifatlar egasi va mo'tabar zot, Xaq ravshanligining shohi va to'g'ri yo'lning gul soluvchisi bo'lgan Xoja Baxouddin Naqshband bu iqlim uzra taxt qurgach, yo'qlik mulkida xam podshox bo'ldi. Haqiqatdan xam, oltin silsila–silsilot az-zaxab deb atalgan va ko'ngillarda ishqu sadoqat urug'ini ko'kartirishga zamin yaratgan Naqshbandiya tariqati musulmon olamida asrlar osha chuqur ildiz otdi. Hozirda Pokistonda Naqshbandiya tariqati Jaxon markazi faoliyat ko'rsatmoqda. XXI asrga kelib, nafaqat musulmon olamida, balki AQSH, Germaniya, Rossiya, Avstraliya, Litva kabi mamlakatlarda xam bu tariqatga ixlosmandlar ko'paydi. Naqshbandiylik tasavvufni xayotiy lashtirgan ta'limotdir, deydi Pokistondagi naqshbandiya tariqati jaxon markazi raisi Zulfiqor Axmad. Xulosa qilib shuni aytish munkinki maqolamning oxirida ushbu tariqat daraxti xali butun olamni tutadi, chunki unda kishilik tafakkurining eng amaliy va oqilona xulosasi mujassam.

Foydalanga adabiyotlar

1. Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho'lpon, 2000, -80 b.
2. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni.
3. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, Navro'z, 1992 y, 58-bet.
4. Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 154-155-betlar.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom, –Fan, Toshkent, 2001y
6. Imomnazarov M. Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. 176-bet.
7. Islom ensiklopedyasi. 138-139-betlar;